

QADIMGI ARAB TILSHUNOSLIGI

Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik faoliyati fakulteti
sharq tillari (xitoy tili) yo'nalishi
102-guruh talabasi
Mamatqodirova Durdona Bahodirjon qizi
Ilmiy maslahatchi: **Zaynobidinova I.M**

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilshunosligining asosiy yo'nalishlari, xususan fonetika, morfologiya va sintaksis kabi bo'limlarning shakllanishi hamda rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Arab tilining tarixiy rivojlanishi, uning zamonaviy variantlari va lahjalar tizimi o'rtasidagi farqlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, arab tili grammatikasining o'ziga xos xususiyatlari va ularning boshqa semit tillariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari arab tilshunosligining hozirgi kunda ham dolzarb ekanini ko'rsatib, ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *fonetika, morfologiya, sintaksis, lingvistika, fleksiya, klassik, affiks*

Аннотация: В данной статье анализируются основные направления арабского языкознания, в частности формирование и развитие таких разделов, как фонетика, морфология и синтаксис. Историческое развитие арабского языка, различия между его современными вариантами и системой диалектов освещаются на основе научных источников. Кроме того, рассматриваются особенности арабской грамматики и её влияние на другие семитские языки. Результаты исследования показывают, что арабское языкознание остаётся актуальной областью и подчеркивают значимость современных научных изысканий в этой сфере.

Ключевые слова: *фонетика, морфология, синтаксис, лингвистика, флексия, классический, аффикс*

Annotation: This article analyzes the main directions of Arabic linguistics, particularly the formation and development of such branches as phonetics, morphology, and syntax. The historical evolution of the Arabic language, as well as the differences between its modern varieties and dialectal systems, is examined on the basis of scholarly sources. In addition, the study explores the distinctive features of Arabic grammar and its influence on other Semitic languages. The research results demonstrate that Arabic linguistics remains a relevant field today and highlight the importance of ongoing academic studies in this area.

Key words: *phonetics, morphology, syntax, linguistic, inflection, classical, affix*

Avvalo arab tilshunosligi boshqa tilshunoslik janrlarga o'xshab juda ham boy va buyuk tarixga egadir.. Arab tilshunosligining taraqqiyoti VII-XII asrlarga to'g'ri keladi.¹ Arab tikshunosligi o'z davrida ilmiy tekshiruvchilar orasida ko'p qiziqish va tortishuvlarga sabab bo'lgan. Tekshiruvchilarning ba'zi birlari faqat arab tilshunosligini emas, balki butun qadimgi arab fanining bo'lganligini shubha ostiga olib, uni mustaqil fan sifatida emas va uning yaratilish faqat arablarning o'ziga tegishli emas, deb hisoblaydilar. Arablar tilshunoslikni klassik va hind tilshunosligidan olgan va uni o'z sharoitiga moslashtirib Yevropaga yangicha ko'rinishda taqdim etganlar deb hisoblamochi bo'ldilar. Arab fani va tilshunosligini diqqat bilan o'rganish natijasida bu fikrlarning noto'g'ri ekanligi isbotlandi. Arab tilshunosligi ham asosan amaliy masalalarni olg'a surdi. Qadimgi arab tilshunosligi avval Barsa va Qufa shaharlarida bo'lsa, keyinchalik Bog'dodga ko'chadi. Arab tilshunosligining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Sibavyehidir. O'zining "Al-kitob" asarida eski arab she'riyatidan olingan mingdan ortiq she'riy parchalar asosida arab tili grammatikasi va fonetikasi haqida fikr yuritadi. Sibaveyhi kitobidagi grammatikaga doir fikrlar o'zining tugallanganligi va sistemaliligi bilan kishini hayratga soladi. Bu narsa Sibavyehini o'z ustozlari Xalil al Farxodiyning "Ayna kitobi"dan bahramand bo'lganliginiko'rsatadi. Sibaveyhining «Kitobi» barcha davr arab tilshunoslari uchun amaliy qo'llanma bo'lib qoldi. Bu asarda arab tili fonetikasi va grammatikasiga doir fikrlargina emas, balki arab tilining so'z boyligini to'plash va tasnif qilish haqida ham qimmatli fikrlar berdi. Arab tilshunosligi taraqqiyotiga Al-Asmai, Abu Ubayda, Al-Ansora, Al-Mubarrad, Muhammad ibn Durayd, Muhammad Al Anbari, Ibn Jini va boshqa tilshunoslar ham munosib hissa qo'shdilar.

Arab tilshunoslari, yunon tilshunoslaridan farqli, fonetika masalalariga g'oyat sezgirlik bilan munosabatda bo'lganlar. Ular tovush va harfni, yunonlardan farqli, qat'iyan farqlaganlar. Shuningdek, harf termini bilan faqat yordamchi so'z va affikslargina emas, balki nutq tovushini, aloma termini bilan esa tovushning yozuvdagi ko'rinishini, ya'ni harfni ifodalaganlar.² Arablar unli va undosh tovushlarni farqlab, undoshni mohiyat, unlini esa o'tkinchi deb ta'riflaganlar va arab so'zlarida (uzaklarida) undosh tovushlarning asosiyligini, yetakchiligini ta'kidlaganlar. Qiyoslang: kitob, kotib, kutub. Shunga ko'ra ular uch undoshli uzaklarni alohida ajratganlar. Arab tilida uzak 3 (ba'zan 4) undoshdan iborat bo'lib, so'z va so'z formalari yasash paytida bu undoshlar orasidagi unli tovushlar o'zgartiriladi (kitob, kotib, kutub). So'zning bunday

1 Musayev.A-Umumiy Tilshunoslik – 2022 Toshkent ("Oltin Kitob" nashriyoti)

² Rasulov Ravshanxo'ja-Umumiy Tilshunoslik Toshkent 2010

tuzilishi fleksiya (egilish) haqidagi ta'limotni yaratishga olib keldi³. Shunga ko'ra arab–yahudiy filologiyasida o'zak, so'z yasovchi elementlar tushunchasi bilan birga fleksiya haqidagi tushuncha ham paydo bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilshunosligi tarixi Qur'on tilini to'g'ri anglash ehtiyojidan kelib chiqib shakllanib, fonetika, morfologiya va sintaksis kabi sohalarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, arab tilshunosligi zamonaviy lingvistika uchun muhim ilmiy meros qoldirgan. Arab grammatikasidagi nazariy yondashuvlar nafaqat arab tili, balki boshqa tillarni o'rganishda ham qo'llanilgan. Arab tilshunosligidagi fonetika, morfologiya va sintaksis nazariyalari zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda qo'llanilib, ilmiy tushunchalarni boyitishda davom etmoqda. Shu tariqa, o'rta asr arab tilshunosligi ilmiy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy lingvistika uchun ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Akademnashr, 2012
2. O'rinboyev B., Musayev A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent: Oltin kitob, 2022.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Darslik. — Toshkent, 2013.
4. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2010

³ O'lmas Sharipova, Ibrohim Yo'ldoshev-Tilshunoslik asoslari-Toshkent 2010